



ADABIYOT DARSLARIDA ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH

Bozorova Gulchexra Nazarovna

NDKTU akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Orziqulova Dilbar

NDKTU akademik litseyi 1-S -25 guruhi o'quvchisi

Annotation. Ushbu maqolada adabiyot darslarida Abdulla Oripovning hayoti va ijodini o'qitishning pedagogik hamda tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Shoirning hayoti, ijodiy bosqichlari, she'riy dunyoqarashi, vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy poklik g'oyalari ta'lim jarayonidagi o'rni nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va badiiy matnni tahlil qilish usullaridan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, Abdulla Oripov ijodini o'quvchilarga chuqur anglatish jarayonida ularda estetik qarash, badiiy tafakkur, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada shoir merosining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning o'quvchi shaxsini kamolga yetkazishdagi ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: 60-yillar she'riyati, "Ilohiy komediya", evristik, reproduktiv, leygmotivid, interfaol usullar, adabiyot darslari, ijod, she'riyat, vatanparvarlik, ma'naviyat, estetik tarbiya, badiiy tahlil, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, badiiy tafakkur, o'quvchi shaxsini rivojlantirish.

Annotation. This article highlights the pedagogical and educational significance of teaching the life and work of Abdulla Oripov in literature lessons. The poet's life, creative stages, poetic worldview, ideas of patriotism, national pride and spiritual purity are analyzed from the point of view of their role in the



educational process. The effectiveness of using modern pedagogical technologies, interactive methods and methods of analyzing literary texts in the lesson is justified. Also, in the process of deeply understanding the work of Abdulla Oripov, opportunities are revealed for the formation of aesthetic vision, artistic thinking, patriotism and respect for national values in students. The article discusses the role of the poet's heritage in the educational process, its influence on the development of the student's personality, scientifically and theoretically.

Keywords: poetry of the 60s, "Divine Comedy", heuristic, reproductive, leiggmotivid, interactive methods, literature lessons, creativity, poetry, patriotism, spirituality, aesthetic education, artistic analysis, pedagogical technologies, interactive methods, artistic thinking, development of the student's personality.

Kirish.

Abdulla Oripov XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biridir. Uning asarlari adabiyotimizning yangi bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Oripov she'riyatining tomirlari suv ichgan maysalar, shubhasiz, o'zbek xalqining hayoti va taqdiridir, uning o'tmishi va bugunidir, mumtoz she'riyatimiz va hozirgi adabiyotimizdir. Ayni vaqtda, bu she'riyatning shakllanishi va ravnaqiga ta'sir ko'rsatgan omil sifatida jahon she'riyatining ilg'or an'alarini ko'rsatish o'rinli bo'ladi. Jahon adabiyoti durdonalaridagi «Ilohiy komediya» («Do'zax»dostoni) ni o'zbek tiliga (rus tilidan) yigirma sakkiz yoshda tarjima qilishga kirishgan Abdulla Oripov o'ziga xos ijodiy jasorat ko'rsatdi. deyish mumkin. «Dante «Ilohiy komediya»da hayotni shunday tadqiq etganki, uni tarjima qilayotganimda shoir esimdan chiqib ketib, men bilan fikrdosh ekaniga suyunganman»,— deydi Abdulla Oripov suhbatlardan birida. Bu fikr zamirida chuqur ma'no bor. Zero, hayotni badiiy tadqiq etishdagi uslubiy yakinlik tarjima muvaffaqiyatini belgilashdan tashqari, umuman, o'zbek adabiyoti ijodiy taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu davrdan boshlab Abdulla Oripov she'riyatida matnga botiniy ma'noni jo etish mahorati oshdi.



60-yillar avvalidan o'zbek adabiyotida hayotga yaqinlashish va haqqoniylik kuchaya boshladi, degan fikr adabiyotshunoslikda ko'p aytiladi. Bu fikrda jon bor, albatta. Biroq, xayotga yaqinlashishday, haqqoniylikka intilishdan badiiy adabiyot hech qachon yuz o'girmaganiga e'tibor bersak, yuqoridagi fikrni 60-yillarning avvalidan adabiyotimizda hayotni, haqiqatni tasvirlashda badiiylikka intilish, unda rash-barang izlanishlar olib borish tamoyili kuchaydi, degan ma'noda tushunsak to'g'riroq bo'ladi. Shu ma'noda, 60-yillardan boshlanuvchi yangi bosqich-o'zbek she'riyatida haqqoniylik va insonparvarlik printsiplarining chuqurlashuvida, badiiylikning yangi-yangi imkoniyatlarini izlash, topish va qo'llashda kenja avlod, uning ayniqsa peshqadam vakili Abdulla Oripov asarlari muhim ahamiyat kasb etdi. Shoir so'nggi yillarda mumtoz she'riyatimizning boy tarixga ega shakl va janrlariga alohida e'tibor beradi. Ularni bugungi adabiy jarayonda, aytish mumkinki, qayta tiriltirib, yanada boyitishga hissa qo'shmokda. Shulardan biri masnaviydir. Masnaviyda ijod etish mushkul ekani ma'lum. Abdulla Oripov unga dadil qo'l urdi va eng asosiysi, bir qancha muvaffaqiyatli asarlar yaratdi («Shoshmaslik hakida ballada», «Uzlat», «Mamuniyat»...). Mavzu, g'oya, muammo. lirik qahramon nuqtai nazaridan Abdulla Oripov she'rlari rang-barangdir. Istiqloq, Vatan, xalk va millat, muhabbat va armon, tabiat va fazo, ideal inson va ma'naviy dunyo, Ona va ayol, tarix va bugun, bashorat va fantaziya, do'stlik va xiyonat, keng ma'nodagi ona zamin va insoniyat taqdiri, urush va tinchlik, umr mohiyati va «u dunyo» Abdulla Oripov asarlarining mavzui, mazmunini tashkil etadi. Bu mavzularga murojaat qilar ekan, shoir ezgu tuyg'ularni ulug'lash («Ishonch ko'priklari», «Tiriklik», «Savob», «Inson manzarasi»); vijdon, ma'naviy go'zallik va insoniy barkamollik («Temir odam», «Malomat toshlari», «Qo'riqxona», «Xatolaring kerak ularga»); ijtimoiy adolat va xaqiqat («Imzo yig'ish», «Aytishuv», «Ilg'or ishchi va chaqqon muxbir qissasi», «Dialektika») masalalarini. doimo diqqat markazida tutadi. Bular aslida shoir ijodining bosh leygmotividir. Abdulla Oripovning mukarram zotga mehr va



shafqat tuygusi, muruvvati nechog'li cheksiz ekani uning, ayniqsa, ayol sha'nini ulug'lashga bag'ishlangan she'rlarida yorqin ko'rinadi,

Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab ko'p qirrali mazmunga ega bo'lganligi sababli, darsda o'quvchilarning estetik, axloqiy va aqliy taraqqiyotiga, bilimlarni ongli, chuqur va puxta egallashlariga, ularda bilish va anglash ko'nikmalarini o'stirishga yordam beradigan usul va uslublar qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi, ijodiy o'qish, evristik (izlanish), tadqiqot, reproduktiv usullarini qo'llaydi.

Adabiyotni o'quv fani sifatida o'rganishning birinchi bosqichi-badiiy asarni o'zlashtirishdir. O'qituvchi-o'quvchini badiiy asar orqali hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi. Ko'rish va anglash asarni chuqur, ijodiy o'zlashtirishning zaruriy shartidir. O'quvchining shaxsiy ijodiy tajribasi, ijodiy o'qish usuli bu shartlarni amalga oshirishga katta yordam beradi. Badiiy asarni o'qish ilmiy va publitsistik asarlarni o'qishdan sifat jihatdan farq qiladi. Ijodiy o'qish so'zga, jumlagi, vaznga alohida e'tibor berishni talab qiladi.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni zukkolikka, chaqqonlikka o'rgatishga katta e'tibor berildi. O'quvchilarning Abdulla Oripovning «Genetika» she'rini o'zlashtirishi orqali iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlari haqidagi bilimini oshirish maqsad qilib olingan edi. Shuningdek, mavzu orqali o'quvchilarda, qadriyatlarni ulug'lash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish tuyg'usini rivojlantirish ham maqsad qilindi Darsda o'quvchilarning yangi pedtexnologiyalar asosida mavzu ustida ishlashiga, interfaol usullarni ishlatishiga katta e'tibor qaratiladi.

She'riy matnlarni ushbu yo'nalishlarda, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar yordamida o'zlashtirish asnosida o'quvchilar so'zning bepoyon imkoniyatlariga guvoh bo'ladilar, poetik tafakkurlarini yuksaltiradilar, badiiy durdonalardan yanada chuqurroq bahramand bo'lishga, ijodkor g'oyasini teran



anglashga erishadilar. Bu esa adabiyot darslaridan ko'zlangan maqsad va vazifalarni munosib darajada hal qilish, o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish; badiiy idroki o'tkir kitobxonlarni, yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashning mustahkam zaminidir.

Xulosa

Adabiyot darslarida Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rganish o'quvchilarda badiiy tafakkurni, ma'naviy dunyoqarashni, vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shoirning she'riy merosi — vatan muhabbati, erkinlik, adolat, insonparvarlik va ma'naviy poklik g'oyalariga boy bo'lib, yosh avlodning ruhiy-ma'naviy tarbiyasida beqiyos tarbiyaviy kuchga ega.

Dars jarayonida Abdulla Oripov ijodini o'rganish o'quvchilarda badiiy matnni idrok etish, tahlil qilish, xulosalash va o'z fikrini asoslab bayon etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlardan foydalanish shoir she'riyatining mazmun-mohiyatini o'quvchilarga chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, Oripov ijodini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did, badiiy nutq madaniyati va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlovchi samarali metodik yo'nalishlar shakllanadi. Shoirning inson qadr-qimmati, milliy birlik, Vatanga sadoqat haqidagi she'rlari yosh avlodning komil shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, Abdulla Oripov hayoti va ijodini adabiyot darslarida o'rgatish nafaqat o'quvchilarning badiiy-adabiy bilimini kengaytiradi, balki ularning ma'naviy kamolotiga, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'usining shakllanishiga xizmat qiladigan muhim pedagogik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2009.



2. A.Oripov. Tanlangan asarlar. T. Adabiyot va san`at» nashriyoti-2001-yil.
3. To`xliiev B.va b.«Adabiyot» darsligi (Akademik litseylar uchun).T.: 2016.
- 4.To`xliiev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. – T.: O`zbekiston. 2010.
- 5.Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. Journal of Applied Science and Social Science, 1(2), 474-479.
- 6.Rajabova, D. (2025). SYSTEMIC PROBLEMS OF THE CURRENT STATE OF THE INNOVATION ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 638-643.
- 7.Rajabova, D. (2025). WAYS TO IMPROVE INNOVATION ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 604-610.
- 8.Rajabova, D., & Usmonova, D. (2024). BIG DATA VA IQTISODIY TADQIQOTLARDA TAHLILIY IMKONIYATLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(15), 16-23.
9. [http:// www.literature.uz](http://www.literature.uz) ;
- 10.<http://www.ziyouz.com>